

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

SUDLAR TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 15-iyunda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Sud hokimiyati

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qaysi boshqa organlar va shaxslar sud hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirib olishga haqli emas.

2-modda. Sud tizimi

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;

tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga ko'ra sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

3-modda. Sudlar to'g'risidagi qonunchilik

Sudlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyati tartibi alohida qonun bilan belgilanadi.

4-modda. Sudning asosiy vazifalari

Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

5-modda. Sudyalar korpusini shakllantirish

Sudyalar korpusini shakllantirish sudyalarning mustaqilligi prinsipiga qat'iy muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi alohida qonun bilan belgilanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qonunchilik tashabbusi

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunlar loyihamalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladigan qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

7-modda. Sudlarda davlat ramzları

Sud binosida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tariladi, sud binosining old tomonida va sud majlislari zalida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri joylashtiriladi.

8-modda. Qonuniylik

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga qat'iy muvofiq holda amalga oshiriladi.

9-modda. Sudyalarning mustaqilligi

Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadi. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarga odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10-modda. Sud hujjatlarining majburiyligi

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

11-modda. Qonun va sud oldidagi tenglik

Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdir. Korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.

12-modda. Sud ishlarni yuritishning oshkorali

Barcha sudlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Sud ishlari yuritiladigan til

O'zbekiston Respublikasida sud ishlarni yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish huquqi va sudda ona tilida yoki ular biladigan boshqa tilda so'zlash huquqi ta'minlanadi.

14-modda. Sud himoyasida bo'lish huquqi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlari hamda boshqa organlarning har qanday g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan), shuningdek hayoti va sog'lig'i, sha'ni hamda qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Yuridik shaxslar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir.

15-modda. Odil sudlovnii amalga oshirishda malakali yuridik yordam

Odil sudlovnii amalga oshirishda har bir kishiga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Guman qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga sud ishlarni yuritishning har qanday bosqichida himoyalanish huquqi ta'minlanadi.

Qonunda belgilangan hollarda davlat bepul malakali yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

16-modda. Aybsizlik prezumpsiyasi

Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi.

Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas.

Hech kim qyynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

17-modda. Sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi

Taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

2-bob. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

18-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi, appellatsiya va kassatsiya instansiysi sudi sifatida, shu jumladan kassatsiya instansiysi sudida takroran, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo'yicha ko'rib chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida sud amaliyotining dolzarb masalalarini ko'rib chiqadi va qonunchilikning qo'llanilishi yuzasidan tushuntirishlar beradi;

harbiy sudlarning, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudining, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlarining, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining tashkiliy faoliyatini o'rganadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;

sudyalarning va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

19-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinnbosari — ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi, o'rinnbosarlari — fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlari raislari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalaridan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyidagi tarkibda ish yuritadi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati;

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati.

Sudlov hay'atlarida ixtisoslashtirilgan sudlov tarkiblari tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarining son jihatdan tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

20-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raislaridan iborat tarkibda ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, Bosh prokurori, adliya vaziri, Advokatlar

palatasi raisi, sudyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

21-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumini chaqirish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi zaruriyatga qarab, lekin to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Qonunchilikni qo'llash masalalariga doir qarorlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

22-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi:

sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

qonunchilik tashabbusi tartibida ishlab chiqilgan qonun loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish masalalari yuzasidan murojaat kiritish, shuningdek muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi sudlar tashabbusi bilan kiritilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish haqidagi taqdimnomasini ko'rib chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay'atlarining tarkibini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek sudlov hay'atlari faoliyati haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari raislarining qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlari bajarilishi haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati rahbarini tasdiqlaydi va uning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi apparati faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay'ati tarkibini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisining bayonnomasi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida bayonnomma yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisining bayonnomasi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan o'z vakolatlariga kiritilgan masalalarini ko'rib chiqish

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi ko'rib chiqishi uchun masalalar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi, Bosh prokurori qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan tushuntirishlar berilishi haqida takliflar kiritishga haqli.

Masalani ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining yoki buning uchun vakolat berilgan boshqa shaxsning ma'rurasini eshitishdan boshlanadi. Masalaning muhokamasida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlisiga taklif qilingan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdar shaxslar uchun majburiydir.

26-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi vazifalarini bajarish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlisini tayyorlashga, majlis bayonnomasini yuritishga doir ishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori ijrosini tashkil etish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi.

27-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o'rindbosari va o'rindbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibiga lavozimi bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati majislari zaruriyatga qarab, lekin har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

28-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati:

sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari raislarining sud faoliyati to'g'risidagi va qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari va apparati ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

29-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari:

ishlarni birinchi instansiada, appellatsiya va cassatsiya tartibida, shu jumladan cassatsiya instansiyasi sudida takroran ko'radi;

sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi;